QORAQALPOG‘ISTON O‘ZBEKLARINING ZIYORAT MADANIYATIDA FARZAND TILASH AN’ANALARI VA E’TIQODIY QARASHLARI

Paxratdinov Ajiniyaz Kuralbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti
ajiniyazpaxratdinov@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘zbeklari orasida farzand tilash maqsadida muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish amaliyotlari, ular bilan bog‘liq marosim va urf-odatlar etnologik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, bepushtlik va farzandsizlikka doir an’anaviy tasavvurlar, e’tiqodlar hamda marosimiy amaliyotlarning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqotning empirik asosini 2026-yil aprel–may oylarida Qoraqalpog’istonnig Amudaryo, Beruniy, To‘rtko‘l, Ellikqal’a, Taxiatosh, Xo‘jayli va Qo‘ng‘irot tumanlarida to‘plangan dala materiallari tashkil etadi. Tadqiqotda etnografik kuzatuv, intervyu, qiyosiy-tarixiy va strukturaviy-semiotik tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijalar farzand tilash marosimlarida maqbaralar, qabristonlar, buloqlar, quduqlar va muqaddas daraxtlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, islomiy e’tiqodlar, ajdodlar kultiga oid tasavvurlar va islomgacha bo‘lgan marosimiy qarashlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi aniqlangan. Tadqiqot an’anaviy e’tiqodlarning zamonaviy transformatsiyasini yoritishga xizmat qiladi.*

Аннотация. *В данной статье с этнологической точки зрения проанализированы практики паломничества к святым местам с целью испрошения потомства среди узбеков Республики Каракалпакстан, а также связанные с ними обряды и обычаи. Кроме того, освещены особенности традиционных представлений, верований и ритуальных практик, касающихся бесплодия и бездетности. Эмпирическую базу исследования составили полевые материалы, собранные в апреле–мае 2026 года в Амударьинском, Берунийском, Турткульском, Элликкалинском, Тахиаташском, Ходжейлийском и Кунградском районах. В работе использованы методы этнографического наблюдения, интервью, сравнительно-исторического и структурно-семиотического анализа. Результаты демонстрируют значение мавзолеев, кладбищ, родников, колодцев и священных деревьев в обрядах испрошения детей. Также выявлен синкретизм исламских верований,*

представлений культа предков и доисламских ритуальных воззрений. Исследование способствует раскрытию современных трансформаций традиционных верований.

Abstract. *This article provides an ethnological analysis of pilgrimage practices to sacred sites for the purpose of seeking fertility and offspring among the Uzbeks of the Republic of Karakalpakstan, along with associated rituals and customs. It also highlights traditional concepts, beliefs, and specific features of ritual practices regarding infertility and childlessness. The empirical basis of the study consists of fieldwork materials collected in April–May 2026 across the Amudarya, Beruniy, Turtkul, Ellikkala, Takhiatash, Khojeyli, and Kungrad districts. The study utilized ethnographic observation, interviews, comparative-historical analysis, and structural-semiotic methods. The findings demonstrate the significance of mausoleums, cemeteries, springs, wells, and sacred trees in child-seeking rituals. Furthermore, it reveals a syncretism of Islamic beliefs, ancestral cult concepts, and pre-Islamic ritual views. The study contributes to shedding light on the contemporary transformation of traditional beliefs.*

Kalit so‘zlar: *Qoraqalpog‘iston o‘zbeklari, etnomadaniy meros, ziyoratgoh, muqaddas qadamjo, farzand tilash, bepushtlik, xalq e’tiqodlari, marosimiy amaliyotlar, ajdodlar kulti, magik-ritual qarashlar.*

Ключевые слова: *Узбеки Каракалпакстана, этнокультурное наследие, место паломничества, священное место, испрашивание потомства, бесплодие, народные верования, обрядовые практики, культ предков, магико-ритуальные представления.*

Key words: *Uzbeks of Karakalpakstan, ethnocultural heritage, shrine, sacred site, praying for a child, infertility, folk beliefs, ritual practices, ancestor cult, magical-ritual views.*

Kirish. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek oilalarida befarzandlikning oldini olish hamda farzandsizlik bilan bog‘liq magik qarashlar, irimlar, urf-odat va marosimlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Bu o‘zbek xalqida ham, boshqa xalqlardagi kabi, farzand oilaning davomchisi, merosxo‘ri, quvonchi va jamiyatning tayanchi sifatida qadrlanishini ko‘rsatadi. Shu sababli farzand ko‘rish istagi bilan bog‘liq turli xalqona qarashlar, e’tiqodlar, irim-sirimlar, urf-odat va marosimlar shakllangan.

Qoraqalpog‘iston hududida yashovchi o‘zbek xalqi ham asrlar davomida o‘ziga xos etnik-madaniy an’analarni saqlab kelmoqda. Bu hududda befarzandlik, uning oldini olish, homiladorlik va bola tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlar xalqning diniy

e’tiqodlari, milliy qadriyatlari va turmush tajribalari bilan uyg‘unlashgan holda rivojlangan.

Qoraqalpog‘istonning turli hududlarida farzand tilash va befarzandlik bilan bog‘liq urf-odatlar umumiy jihatlarga ega bo‘lsa-da, mahalliy an’analar ta’sirida ayrim tafovutlar ham kuzatiladi. Mahalliy o‘zbek xalqiga xos xususiyatlarni ko‘rsatish bilan birga, ushbu xalqning xalqona qarashlari, e’tiqodlari, irim-sirimlari mahalliy boshqa xalqlar bilan chambarchas bog‘lanib, o‘zaro bir-biriga ta’sir ko‘rsatish jarayonini yoritib berishdan iborat. Asosan muqaddas ziyoratgohlarda amalga oshiriladigan magik e’tiqodlar, irim-sirimlar, urf-odat va marosimlarning asosiy qismi farzandsizlikning oldini olishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Qoraqalpog‘iston o‘zbeklariga bag‘ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam. XX asr o‘rtalarida K.L.Zadixina tomonidan ikki maqola e’lon qilingan bo‘lib, ularda mintaqa o‘zbek aholisining xo‘jalik faoliyati, moddiy madaniyati, ma’naviy hayoti va oilaviy marosimlarining ayrim jihatlari ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, muallif bu yerda bepushtlikdan qutulish maqsadida muqaddas joy mozorni ziyorat qilish bilan bog‘liq e’tiqodlar haqida yozadi [1]. Keyingi o‘n yilliklarda Qoraqalpog‘iston o‘zbeklari deyarli kompleks etnografik o‘rganish obyektiga aylanmadi. So‘nggi yillarda Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarining oilaviy marosimlari M. Xo‘janov tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, u to‘y va dafn marosimlariga alohida e’tibor qaratgan [11]. Bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarining dafn marosimlariga bag‘ishlangan bir qator ishlar chop etilgan [4]. Shu bilan birga, o‘zbek oilasida bepushtlik haqidagi tasavvurlar va uni bartaraf etishning an’anaviy usullari kabi muhim jihatlar ko‘rsatilgan tadqiqotlarda maxsus yoritilmagan. Bu holat ushbu moddaning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot asosini 2026 yilning aprel – may oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘zbeklar aholining ko‘pchiligini tashkil etuvchi Amudaryo, Beruniy, To‘rtko‘l va Ellikqal’a tumanlarida, shuningdek, ko‘p millatli Taxiatosh, Xo‘jayli hamda Qo‘ng‘irot tumanlarida istiqomat qiluvchi o‘zbek aholisi orasida to‘plangan dala materiallari tashkil etdi. Dala ma’lumotlari bilan bir qatorda, O‘zbekistonning boshqa hududlarida yashovchi o‘zbeklar misolida ushbu mavzuga bag‘ishlab chop etilgan ilmiy tadqiqotlar ham qiyosiy jihatdan jalb etildi.

Etnografik materiallar tahlili asosida bepushtlikning oldini olish bilan bog‘liq muqaddas ziyoratgohlardagi magik e’tiqodlar, irim-sirimlar, urf-odat va marosimlar, ahamiyati haqida yoritib berishga harakat qilindi.

Mahalliy o‘zbeklarda ham befarzand ayollar bobolarining ruhlari qo‘llashiga bo‘lgan ishonchi yuqori. Qoraqalpog‘iston hududidagi ko‘pchilik o‘zbek oilalarida farzandsizlik muammosi bo‘lsa, «ota-bobolarimiz ruhi qo‘llagay» deb erining ota-

bobolari yotgan qabrlarni asosan juma va seshanba kunlari, jami 3 yoki 7 kun davomida ziyorat qiladi [7].

Masalan, Qoraqalpog‘iston hududida joylashgan befarzand ayollarning muqaddas deb e’tirof etiladigan ziyoratgohlaridan Azizlar bobo ziyoratgohi, Imom eshon Muhammad jome masjidi, Mazlumxon Suluv maqbarasi, Xalifa Rajab maqbarasi, Shamunabi mavzelari va Jomart qassob tepaligi asosiy ziyoratgohlardan hisoblanadi [3].

Bu muqaddas ziyoratgoh joylarga borib bir necha an’analarni amalga oshiradilar. Befarzand ayollar muqaddas ziyoratgohlarida qo‘g‘irchoq, latta (shúberek), arg‘imchoq (atkónshek) singari ziyorat atributkalarining ziyoratchilar tomonidan tashlab ketilishi va bunday muqaddas joylardan Mazlimxon suluv (Xo‘jayli tumani), Sulton Uvays boba (Beruniy tumani) kabi yirik ziyoratgohlarda tunab qolishi kuzatiladi [10].

Eng mashhur ruhiy ziyoratgohlardan biri Beruniy tumanidagi Sulton Uvays bobo maqbarasi va masjididir. Bu erga uzoq yillar davomida farzand ko‘ra olmay yurgan er-xotinlar kelib, Allohdan farzand tilab duo qiladilar. Bu erdagi muqaddas suvli, baliqlarga to‘la ko‘lni ziyorat qilish va nazr qilish an’analari mavjud. Bu yerga borganlar tahorat olib, eng avvalo majmua ichidagi masjidda namoz o‘qib, Allohdan farzand so‘rab duo qiladilar. Majmua ichida baliqlari bor maxsus hovuz mavjud. Bu baliqlarga tegilmaydi, ziyoratchilar ularga ozuqa sifatida non tashlab, farzand tilab yaxshi niyat qiladilar. Ushbu ziyoratgohda ziyoratchilar uchun oshxonalar, nazr qilish joylari bor. Er-xotin birga borib, farzand tilab Alloh yo‘liga nazr qilish odat tusiga kirgan.

Shunday muqaddas ziyoratgohlardan biri sifatida Amudaryo tumanidagi Shayx Jalil bobo maqbarasi ham shular qatoriga kiradi. Ko‘p yillar davomida farzand ko‘rmay yurgan ayollar o‘z qo‘llari bilan kichkina beshik yoxud *belanchak* (arg‘imchoq) singari narsalarni yasab, muqaddas deb hisoblanadigan daraxtlarga bog‘lab ketadilar. Bu “uyimizda ham shunday beshik tebransin, farzandli bo‘laylik”, degan niyatni bildiruvchi irim hisoblanadi [8].

Bundan tashqari Ellikqal’a tumani "Saribiy" OFY hududida joylashgan Mushkul kushod ziyoratgohini ham asosan seshanba va juma kunlari sog‘ligida muammosi bor, ishi yurishmagan kishilar qatori befarzand ayollar ziyorat qiladi. Befarzand ayollar ziyoratga *sut guruch* taomini pishirib olib boradi. Sut, poklikni bildirsa, guruch ko‘p farzandlilikni anglatgan.

Befarzand ayollarning shifo izlab, xalq orasida mashhur bo‘lgan ulamolar, muqaddas deb atalgan joylarga ziyorat qilib ibodat qilishi, u joylarga farzandga (chaqaloqqa) xos bo‘lgan buyumlarni tashlab ketishi ko‘p uchraydi. Shunday

maskanlardan biri, Beruniy tumani hududida joylashgan Kechirmas ota ziyoratgohidir. Ziyoratgohdagi eski quduq yoniga kichik bolalar yostiqchasi, kichkina bolalarning kiyimlarini farzand tilab qo‘yib ketadi.

Beruniy tumani hududida joylashgan Besh mulla ziyoratgohiga asosan befarzand ayollar farzand tilab ziyorat qiladi. Bu yerdagi daraxtlarga yosh go‘dak kiyimlari osilganligini, ro‘mollar esa bolalar arg‘imchog‘iga o‘xshab bog‘lab qo‘yilganligini va ichiga har xil narsalar solinganligini ko‘rish mumkin.

Beruniy tumanida yana shunga o‘xshash ziyoratgohlardan biri Qo‘chqor bobo qabristoni bo‘lib, bu maqbara yonida esa katta yog‘ochga yosh go‘daklarning har xil kiyimlari bog‘langan. O‘sha daraxt tagiga esa to‘rtta cho‘p qadalib, latta bilan o‘ralgan, maqbara oldida esa tutun uchun foydalanilgan *pilik* (chiroq) idish bor. Bu yerga asosan befarzand ayollar, ziyorat qilib, arg‘imchoqqa o‘xshatib latta bog‘langan. Ya’ni, ziyoratchilar tez orada farzandli bo‘lib ketish niyatida shunday narsalarni qoldiradilar [2]. Bugungi kunda bunday ziyorat amallari Qoraqalpog‘istonda Qabaqli ota, Salmen ota, Kechirmas bobo, Sulton Uvays bobo kabi yirik ziyoratgohlarda ham amalga oshiriladi.

Xalqimiz orasida hayvonlar ramzlariga sig‘inish an’analari ayniqsa, befarzand ayollar yo‘lbarsga sig‘inish, yo‘lbars qo‘nim topgan, yo‘lbars tunagan muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish ham ancha keng tarqalgan. Qoraqalpog‘istonning Taxtako‘pir, Qorao‘zak, Chimboy tumanlari ziyoratgohlarida ko‘p uchraydi. Qorao‘zak tumani hududida joylashgan Qabaqli ota ziyoratgohida "yo‘lbars qo‘nim topgan" deb nomlanuvchi joy bo‘lib, unga befarzand ayollar Qoraqalpog‘istonning boshqa tumanlaridan ko‘plab ziyorat qilish, tunab qolish uchun borishadi.

Qo‘ng‘irot tumanidagi *Qiz ávle* qabristoni ham “yo‘lbars farzand tilab tunagan” degan afsonalar sababli farzandsiz ayollar ziyorat qiladigan joyga aylangan [6].

Amudaryo tumanidagi Eshon bobo masjidida farzandsiz ayollar farzandli bo‘lish uchun har juma ketma-ket uch kun davomida *chiro‘gdon* (paxtani o‘rab, yoqqa botirib yoqiladigan pilik) yoqqanlar. Farzand tilab borgan ayollar ushbu Eshon boboning qabri atrofini uch marta aylanib, so‘ng qabrining yonidagi *chiro‘gdon* yoqishga mo‘ljallangan idishga o‘ralgan paxtani solib, oq yog‘ quyib, "farzand so‘rab" niyat qilib, chiro‘gdon yoqib ketadilar[5].

Qo‘ng‘irot tumanidagi Eshim Oxun bobo ziyoratgohida befarzand ayollar farzandli bo‘lish niyatida shu yerda 40 kun chilla tutib, tunab mullanning xizmatlarini qilib yurganlar.

Yana bir muqaddas maskanlardan biri Qo‘ng‘irot tumanidagi Irza bobo qabristoni ichidagi katta turang‘il bo‘lib, befarzand ayollar shu turang‘ilni 3 marta

aylanib, undan tomchilab turgan suvdan ichganlar. Hozir ham bu turang‘il bor, biroq suv chiqmay qolganligi sababli ziyoratchilar soni kamaygan [6].

Ziyoratgohlarda asosan befarzand ayollar avliyoning yordami va homiyligida homiladorlikka erishish maqsadida ziyoratgohlarga tashrif buyurib, avliyoning sharafga qo‘yni qurbonlik qilganlar.

G.P.Snesarev tomonidan bu masala yuzasidan ancha batafsil ma’lumotlar keltirilgan: “Beruniy shahrida qayd etilgan marosimda farzand tilab olish maqsadida mozorga qo‘yni qurbonlik qilish – bu o‘ziga xos almashish bo‘lib, u jonni jon aytadi” (ya’ni chaqiradi) formulasida ifoda etgan, bunda hayvon joni bilan inson joni o‘rtasidagi bog‘liqlik yaqqol ko‘rinadi [9].

Yuqorida aytilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, farzandli bo‘lish yo‘lida qilinadigan an’anaviy amallar va irimlar hanuzgacha saqlanib qolganligini, yangi odatlarning urfga aylanganligining guvohi bo‘ldik. Bu marosimiy amaliyotning o‘ziga xosligi, etnomadaniy, diniy va magik amallarning boyligi bilan ajralib turadi. Shunday bo’lsa ham Qoraqalpog‘istondagi o‘zbeklarning asosiy magik udum va odatlari O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari rioya qilayotgan marosimiy amaliyot bilan madaniy uzviylikka ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Задыхина К.Л. Узбеки дельты Аму-Дарьи // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. I / под редакцией С.П. Толстова. Москва: Издательство Академии наук СССР, 1952. С. 319-429.

2. Исметов Р. Қорақалпоғистондаги муқаддас қадамжолар: тарих ва трансформатсоин ўзгаришлар. Тарих фанлари буйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Нукус, 2026.

3. Курбанова З.И. Женское паломничество к святым местам (по материалам Нукусского и Ходжелийского районов) // Вестник ККОАНРУ. 2010. №3 (220). –Б. 30-37.

4. Курбанова З.И., Ходжанов М.И. Современные практики заблаговременной подготовки погребальной атрибутики у узбеков Каракалпакстана. // Вестник академии наук Республики Башкортостан. 2026, том 58, № 1 (121). С. 76-81

5. Avtorning dala yozuvi №1 2026. Informator Allambergenov Muxaddas. Amudaryo tumani, «Qilishbay» OFY.

6. Avtorning dala yozuvi. №15, 2026. Informator, Aminova Klara. Qo‘ng‘irot tumani, «Besqala» MFY.

7. Avtorning dala yozuvi. №3, 2026. Informator: Raimova Raxatay. Amudaryo tumani, «Do‘rmon» OFY.

8. Avtorning dala yozuvi. №7, 2026. Informator: Atabayeva Gulshira, Amudaryo tumani, «Bostan» MFY.

9. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. С. 116.

10. Турекеев К. Паломнические практики, связанные с бездетностью у каракалпакских женщин// Turkologiya №3(119), 2024. –Б.109-131.

11. Ходжанов М. Қорақалпоғистон ўзбекларида совчилик анъаналари билан боғлиқ урф-одатлар. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси. // 2025. №3 (280). С.126 - 130.